



## **Tasmali konveyerlarning samarali ishlashini taminlash bo'yicha texnik tavsiyalar**

*dotsent M.U.Muminov,*

*assistent A.O.Xamdamov*

*Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali*

**Annotatsiya:** *Konveyer transporti qiyin kon-texnik va kon-geologik sharoitlarda ishlatiladi sababli ularni ishlatishda, konveyerni uzoq muddatda nosozliklarsiz ishlatishni taminlash kerak. Shu sababli konveyer transportiga kundalik va doimiy nazorat qilib turish tavsiya etiladi, bu esa konveyerni unumli, samrali, buzilmasdan yaxshi ishlashini taminlaydi.*

**Kalit so'zlar:** *transport, samra, nazorat, tasma, yuritma, konveyer, roplik, baraban, lenta, texnik, tros, uzatma.*

Yil davomida temperaturaning o'zgarib turishi lentaga suv, qor, chang va shamolning ta'siri konveyer ishining murakkablashishiga olib keladi. Bahor–yoz mavsumida konveyer tasmasi quyosh nurlari ta'sirida tez eskiradi, undan yoriqlar paydo bo'ladi. Konveyer lentasi ustki qismi ostki qismiga qaraganda tezroq qiziydi. Yog'inganrchiilik mavsumida konveyer unumdorligi kamayadi. Tasmaning ichki qismi tishini nam aylantiruvchi baraban yuzasini namlaydi va uning tasma bilan ishqalanishini kamaytiradi.

Yog'ingarchilik va shamolning zararli ta'sirini kamaytirish uchun tasmaning ustki qismiga temir listdan yopqichlar o'rnatiladi. Yon tomonlariga himoya qalqonlari o'rnatiladi.

Konveyerlarga smenali xizmat ko'rsatishda quyidagi omillarga e'tibor berish tavsiya etiladi:



- yuritma Konveyer vannasidagi moylarni tekshirib turish, o'rnatilgan joydagi moylarni kir va changdan tozalash;

- konveyer roliklarini doimiy ishlashini nazorat qilish, uni moylashni tashkil qilish va barabanga lentani o'rnatilishini markazlashtirib turish va boshqalar.

Bizga ma'lumki, yuksiz ishab turgan konveyerning hamma roliklari va barabanlari aylanadi, unda lentaning siljishi konveyer o'qidan 50 mm dan oshmasligi kerak. Aylanmaydigan ishdan chiqqan roliklarni almashtirish kerak.

Konveyerni ishlatishda texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha amaliy tavsiyalar:

- konveyer lentasining yedirilish, kesimdan qirrasining ochilib ketishdan saqlash, konveyerning butun uzunligidagi lentaning yedirilishidan saqlash va tekshirib turish bo'yicha chora tadbirlarni qo'llashdan iboratdir.

- tozalash qurilmasining ishini tekshirib turish muhim ahamiyatga egadir. Lentalar orasida hosil bo'lgan tirqish va rezina tasmalarini gayka va qisqich bilan tortiladi.

- suv bilan ta'minlash ishga yaroqliligini tekshirish amalga oshiriladi. Bunda lentani chetga og'ishini va qizib ketishini AOZ datchik apparati bilan tekshiriladi. Agar qizib ketgan bo'lsa forsunka orqali suv sachratilib turiladi.

- signallashtirish qurilmasining ishga yaroqliligini tekshirib turiladi, unda "Signal" tugmachasi bosiladi, (BS-1 blokidan) shundan so'ng konveyer liniyasiga signal uzatiladi.

- konveyer yuritmasi reduktorini ishini tekshirib ko'riladi. Bunda konveyerni yuksiz 2-3 soat ishlati, reduktor ishlashini tekshiriladi. Agar reduktor ishlaganda ba'zi bir kamchiliklar, nosozliklar sezilsa, qo'lingizni tekkizmasdan konveyerni to'xtat deb tushuntiriladi va nosozliklar tuzatiladi.

Smena davomida yuqoridagi texnik xizmat ko'rsatishlarga e'tibor berilsa konveyer yuqori unumdorlik bilan ishlashi ta'minlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan texnik xizmat qoidalariga e'tibor bergan holda quyidagi ishlar qilinadi.



- konveyer lentasini turg'un yoki ko'chma ustaxonalarida sovuq yoki issiq rezina yamash usullari bilan ishlab chiqiladi. Turg'un ustaxonalarda ta'mirlashda lenta konveyerdan yechib olinadi. Bunda lenta 150-200 m qilib kesib olinadi va ta'mirlash ishlari amalga oshiriladi.

Ko'chma ustaxonalarda esa lenta konveyerdan yechilmaydi va o'sha yerning o'zida ta'mirlanadi.

Lentaning ko'zga ko'ringan shikastlanish joylari kesiladi va o'rniga yangisini qo'yib yaxshilab yopishtiriladi.

Konveyer lentasini ulashda quyidagi texnik jarayonlar bajariladi:

- lentaning tugagan joyidagi ulamalarni olish va ustaxonada ulamalarni yig'ishdan iborat. Lentaning tugagan joyida aylanuvchi baraban lentaning tugagan joyda pastki qismining ustiga chiqib ketmasiligi kerak.

Lentalar bitta trosining uzunligi 250 mm bo'lgani 100 mPa bosim, chidamlilikka, uzunligi 400 mm bo'lgan esa 150-250 mPa bosim chidamli qilib tayyorlanadi.

Trosli va gazlamali lentalarni preslash uchun VTSH-1A va PV preslash qurilmalaridan foydalaniladi.

Lentalarning chidamli tayyorlanganligi ularni ishlatish muddatini uzaytirib, yaxshi samara berish imkoniyatini yaratadi.

Smena davomida roliklarning doimiy ishlashini nazorat qilish ham asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ularni doimiy moylab turishini tashkil qilish yedirilishdan saqlash omili bo'lib xizmat qiladi. Ishdan chiqqan roliklar o'rniga yangi roliklar qo'yish ular ishining ishonchliligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari barabanning ishqalanish koeffitsientini ko'tarish, lentaning tortilishini ta'minlash moslamalarini hal qilish konveyer transportini xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlaydi. Shuning uchun ham konveyer transportini yaxshi ishlashi uchun uni ko'rib o'tilgan texnik nazoratlarini yaxshi yo'lga qo'yish, ularni tasdiqlangan grafik asosida olib borishni talab qiladi.



### Xulosa

Konveyer tasmasining xizmat muddatining oshirish uning taranglovchi baraban oldidagi tozalash qurilmasining sifatli ishlashiga ham bog‘liqdir. Tasmali konveyerlarda gidro va pnevmo hamda mexanik tozalash qurilmalari qo‘llaniladi. Tozalash uchun kurakchalardan tashqari har xil barabanlar ham qo‘llaniladi. Bu barabanlar yuzasiga tozalash chotkalari o‘rnatilgan bo‘ladi. Taranglovchi qurilmalar tasmaning taranglovchi, yuritmaning tortish kuchini uzatishga va rolik tayanchlar orasida tasma salqiligini kamaytiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Подэрни Р.Ю. «Горные машины и комплексы для открытых работ». М., Недра, 1985.
2. Чулков Н.Н., Чулков А.Н. «Электрификация карьеров в задачах и примерах» М., Недра, 1976
3. Русихин В.И. «Эксплуатация и ремонт механического оборудования карьеров». М., Недра. 1982.
4. Муминов М.Ю., Х.Э. Ю., Сотиболдиев А.Ю., Лапасов Х.Р. и Маликова М.А. (2024). Анализ состояния проблемы и обзор применения возобновляемых источников энергии в системах силового возбуждения синхронных машин. *ЖУРНАЛ ТЕХНИКИ, МЕХАНИКИ И СОВРЕМЕННОЙ АРХИТЕКТУРЫ*, 3 (2), 34-37.
5. Муминов, Махмуджон и др. «Исследование автомобильного генератора Г-273 А с возбуждением от фотоэлектрического преобразователя». *Серия конференций E3S*. Том. 563. ЭДП наук, 2024.
6. Муминов, Махмуджон Умурзакович, Шахобиддин Хайрулло Угли Хусанов, and Туракул Кучкарович Арсланов. "Выбор электропривода вентилятора главного проветривания для рудной шахты." *Universum: технические науки* 6-6 (99) (2022): 18-21.



7. Пирматов, Нурали и др. «Использование гибридных систем возобновляемой энергии для возбуждения автономных синхронных машин». *Серия конференций Американского института физики*. Том 2432. № 1. 2022.
8. Muminov , M., Sotiboldiyev , A., & Gulomaliev , M. . (2024). MIKROGES GIDROAGREGAT MEKANIZMLARINI TADQIQ ETISH. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(3), 7–10. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/28858>.
9. Пирматов Нурали Бердиярович, Махмуджон Умурзакович Муминов и Артур Дмитриевич Ан. «РАСЧЕТ ЧИСЛА И МОЩНОСТИ СОЛНЕЧНЫХ ПАНЕЛЕЙ ДЛЯ ВОЗБУЖДЕНИЯ «МИКРО» СИНХРОННЫХ ГЕНЕРАТОРОВ МАЛЫХ ГЭС». *ЭЛЕКТРОТЕХНИКА* 97,4 (2022).
10. Умурзакович, Муминов Махмуд. «ВЫБОР СОЛНЕЧНЫХ ПАНЕЛЕЙ ДЛЯ АВТОНОМНЫХ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ МАЛОЙ ЭНЕРГИИ». *Лучшие интеллектуальные исследования* 5.1 (2023): 151-154. Муминов, М.У. и др. «Анализ состояния проблемы и обзор применения возобновляемых источников энергии для питания систем возбуждения синхронных машин». *ЖУРНАЛ ИНЖЕНЕРИИ, МЕХАНИКИ И СОВРЕМЕННОЙ АРХИТЕКТУРЫ* 3.2 (2024): 34-37.
11. Муминов, Махмуджон и Донияр Суюнов. «ХАРАКТЕРИСТИКИ СИНХРОННОГО ГИДРОГЕНЕРАТОРА МАРКИ ВГС-325/49-32 МОЩНОСТЬЮ 2,2 МВт С ВОЗБУЖДЕНИЕМ ОТ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЯ». *Евразийский журнал технологий и инноваций* 2.1 Часть 2 (2023): 199-201.
12. Муминов, Махмуджон, Джасур Турсунбаев и Чарос Хусанова. «РАБОТКА СОЛНЕЧНОЙ ГИДРОАКМУЛИРУЮЩЕЙ МИКРО ГЭС». *Центральноазиатский журнал образования и инноваций* 3.1 Часть 2 (2024): 41-43.



13. Муминов, М. У. «ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВОЗОБНОВЛЯЕМОЙ ЭНЕРГИИ ОБРАЗОВАНИЕ В МАСКАНЛАРЫ». *Журнал инноваций нового века* 23.2 (2023): 148-150.

14. Пирматов, Нурали и др. «Использование гибридных систем возобновляемой энергии для возбуждения автономных синхронных машин». *Труды конференции AIP* . Том 2432. № 1. Издательство AIP, 2022.